TA’LIMDA ILMIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Bozorboyeva Muxabbat Toxirjon qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Boshlang’ich ta’lim pedagogikasi kafedrasi
stajor o’qituvchisi

Qabul qilindi: 28.10.2025
Ko‘rib chiqildi: 29.10.2025
Tasdiqlandi: 30.10.2025

Kalit so‘zlar:
ilmiy dunyoqarash, ta’lim jarayoni, tanqidiy fikrlash, tahliliy yondashuv, innovatsion g‘oyalar, ma’naviy barkamollik, ta’lim sifati.

Annotatsiya: mazkur maqolada ta’lim jarayonida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning mohiyati va ahamiyati yoritilgan. Ilmiy dunyoqarash o‘quvchilarni atrof-muhit, jamiyat va inson haqidagi bilimlarni ilmiy asosda anglashga, tanqidiy fikrlashga hamda muammolarga oqilona yondashishga o‘rgatadi. Ta’lim tizimida ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish o‘quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish, tahliliy fikrlash, innovatsion g‘oyalarga ochiqlik va ma’naviy barkamollikni shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi globallashuv va raqobat sharoitida ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarda mustahkam ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdir. Ilmiy dunyoqarash – bu insonning tabiat, jamiyat va tafakkur qonuniyatlarini ilmiy asosda anglash hamda ularga tanqidiy yondashish qobiliyatidir. Zamonaviy ta’lim jarayonida ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishga va yangiliklarga ochiq bo‘lishga yo‘naltiradi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar, innovatsiyalar va axborot oqimi tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ilmiy dunyoqarash yosh avlodning ma’naviy-axloqiy barkamolligini ta’minlash va ularni jamiyat taraqqiyotida faol ishtirok etishga tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Shu bois ta’limda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish masalasi pedagogika fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi islohotlar ta'lim jarayonida o‘quvchining aqliy-intellektual imkoniyatlarini ro‘yobgachiqarish maqsadini ustuvor kilib qo‘ymoqda. Umumiy o‘rta ta'lim maktablari o‘quvchilarining qiziqishlari va iqtidorlariga tayangan holda ularni kasbga istiqboldagi faoliyatga yo‘naltirish muhim vazifalardan biridir. Shuning uchun ham umumiy o‘rta ta'lim maktablarida yoq o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish o‘z yechimini kutayotgan ijtimoiy-pedagogik

muammolardandir. Keling avvalo dunyoqarash tushunchasini izohlasak: Falsafa qomusiy lug‘atida dunyoqarash dunyoga va undagi insonning o‘rniga, kishilarning o‘zatrofidagi voqelikka va o‘z-o‘ziga munosabatiga bo‘lgan umumiy qarashlar tizimi", deya ta'kidlangan.[1]

Dunyoqarash — insonning tevarak-atrofini qurshab turgan voqelik to‘g‘risidagi, olamning mohiyati, tuzilishi, o‘zining undagi o‘rni haqidagi qarashlar, tasavvurlar, bilimlar tizimidir. Dunyoqarash olamni eng umumiy tarzda tasavvur qilish, idrok etish va bilishdir.[2] Dunyoqarash, birinchi navbatda, shaxs o‘zligining ifodasidir. Shaxs dunyoqarashining asosiy xususiyati uning ob'ektivligidadir. Shaxs dunyoqarashi ob'ektiv borliqning ongdagi aniq ifodasi hisoblanadi. O‘quvchi o‘zi yashab turgan jamiyatdagi madaniyatni mazkur jarayonning sub'ekti bo‘lganidagina his etadi va anglab etadi. Har qanday madaniyatni o‘zlashtirish mavjud ijtimoiy umumiylik bilan tenglashtirilgan holda amalga oshadi. Bunday tenglashtirish dastlab oiladan boshlanadi. Ta'lim jarayonida esa uzluksiz davom ettiriladi. O‘quvchi o‘zini O‘zbekiston jamiyatining teng huquqli a'zosi sifatida his etgandagina, milliy va umuminsoniy qadriyatlar va madaniyatni o‘zlashtirishga kirishadi.

Ilmiy dunyoqarash esa, dunyo va insonning undagi o‘rni, kishilarning o‘z atrofidagi voqelik va o‘z-o‘ziga munosabatiga bo‘lgan ilmiy qarashlar tizimi hamda bunday ilmiy nuqtai nazarga nisbatan insonning e'tiqodi, uni bilish va o‘zlashtirishga nisbatan intilishidir. Bunday dunyoqarashni shakllantirish natijasida o‘quvchilarning aqliy-intellektual taraqqiyoti ta'minlanadi.

Bugungi kunda axborotlar ko‘lamining nihoyatda kengayganligi tufayli bo‘lgan o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Ilmiy dunyoqarash – bu ilmiy metodlar yordamida ko’p bor tekshirilish, umumiy holda insoniyat tajribasi bilan tasdiqlanish qonunlariga tayanadigan dunyoqarash. Ilmiy dunyoqarash uzluksiz, izchil ravishda insoniyat tomonidan orttirilgan, mavjud ilmiy bilimlarni puxta o’zlashtirish, hayotiy tajribani orttirish asosida shakllanadi. Shaxs dunyoqarashini shakllantirish uzoq muddatli, dinamik xususiyatga ega jarayon sanaladi.[3]

Dunyoqarash kishining yoshi, hayotiy tajribasi, bilimi, mafkurasi bilan bevosita bog‘liq. Shunday ekan o‘quvchilar ilmiy dunyoqarashga ega bo‘lishlari uchun ham ko‘proq kitob o‘qishlari ilm izlanishlari lozim bo‘ladi. Inson ongida sog‘lom aqlga mos dunyoqarashni shakllantirish lozim. Bunday dunyoqarash biror-bir g‘oyani zo‘rlab singdirish yoki quruq yod oldirish orqali emas, balki ishontirish, xilma-xil fikrlarni o‘rtaga tashlash, muhokama qilish, zarur tushuncha, tamoyillarni aniqlash jarayonida shakllanadi va rivojlanadi.

[1] Фалсафа қомусий луғат. «Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти»,«Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. Т.: 2004. Б.115.

[2] Narqulov J., Falsafa asoslari.T.O‘zbekiston nashriyoti matbaa-ijodiy uyi.2005, B.18.

[3] U.I. Inoyatov v.b. Pedagogika.-T.2016.B.86.

Dunyoqarash tushunchasiga berilgan turlicha izoh va ta'riflarda didaktikaning tarixiy va mantiqiy rivojlanishi metodologik qonuniga muvofiq yondashilgan, ya'ni mazkur olimlar tadqiqot o'tkazgan vaqtdagi fan va ijtimoiy rivojlanish darajasiga mos bo'lib, o'sha davr uchun eng muhim e'tiqod sanalgan. Hozirgi axborotlar globallashgan va respublikamiz mustaqillikka erishgan davrda yuqorida qayd etilgan fikrlar mazmunan eskirganini qayd etish zarur. Dunyoqarash – inson ongida organik olam manzarasining aks ettirilishi bo'lib, u shaxsning umri davomida o'zlashtirgan falsafiy, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, estetik qarashlar tizimining yig'indisi sifatida, mustaqil hayot va kelgusidagi kasbiy faoliyat yo'nalishini anglatadi. Shunga ko'ra evolyutsion ta'limotni o'qitish jarayonida talabalarning moddiy borliq va uning paydo bo'lishi, rivojlanishi misolida ularning falsafiy, ilmiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, axloqiy, estetik ideallar va e'tiqodlariga bevosita va bilvosita ta'sirini o'rganish tadqiqot maqsadi etib belgilandi.

Ilg'or texnologiyalar asri hisoblangan XXI asrda axborotlar ko'lamining nihoyatda kengaygani tufayli ularni o'zlashtirishda qiyinchiliklar vujudga kelmoqda, buning uchun talabalarning muntazam izlanishlari, ilmiy yangiliklardan xabardor bo'lishlari taqozo qilinmoqda. Bu holat talabalarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish zarurligini shart qilib qo'ydi. Ilmiy dunyoqarash esa, dunyoga va insonning undagi o'rniga, kishilarning o'z atrofidagi voqelikka va o'z-o'ziga munosabatiga bo'lgan ilmiy qarashlar tizimi hamda bunday ilmiy nuqtai nazarga nisbatan insonning e'tiqodi, uni bilish va o'zlashtirishga nisbatan intilishidir.

Talabalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirish muammosi shaxsning ongi bilan bog'liq bo'lganligi sababli, avvalo uning metodologik asoslarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Shu bilan birga, talabalarningning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish muammosiga bag'ishlangan mavjud ishlarda qimmatli materiallar to'planganiga qaramay, ko'plab masalalar hali ham yetarlicha o'rganilmaganligicha qolmoqda talabalarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda o'quv jarayoni imkoniyatlaridan foydalanish talabalarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradigan pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash; talabalarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish muammosini hal qilish doirasida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hasanboev.J. va boshqalar. Pedagogika fanidan izohli lug'at.- T.: Fan va texnologiya, 2008.- 480 b.
2. O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi. 3-jild.- T., 2002.- 382 b.
3. G'ofurov A.T. O'quvchilarda umumbiologik tushunchalarni shakllantirish. – T.: O'qituvchi, 1976.- 171 b.

4. Narqulov J., Falsafa asoslari.T.O‘zbekiston nashriyoti matbaa-ijodiy uyi.2005, B.18.